

Fanlar akademiyasi prezidenti Immunologiya va inson genomikasi instituti jamoasi bilan uchrashdi

Ma'lumki, so'nggi yillarda davlatimiz tomonidan ilm-fanni rivojlantirish, olimlarga qulay-sharoitlar yaratishga alohida e'tibor qaratilmoqda va tizimli ishlar amalga oshirilmoqda. Ilmiy-tadqiqot muassasalarini moddiy-texnik bazasi mustahkamlanmoqda. Xususan, FA Immunologiya va inson genomikasi instituti binosi ham to'liq kapital ta'mirlandi, bir nechta yangi laboratoriya jihozlari keltirildi va o'rnatildi.



Shu munosabat bilan 26-mart kuni FA prezidenti B.Yuldashev, vitse-prezidentlar B.Ibragimov, S.Mirzayev hamda Kimyo-biologiya bo'limi rahbari J.Toshpo'latovlar Institutga tashrif buyurishdi va Institutning ta'mirdan keyingi holati, yangi keltirilgan laboratoriya asbob-uskunalarini va ularning faoliyati bilan yaqindan tanishdilar.



So'ngra, majlislar zalida Institut jamoasi bilan uchrashuv tashkil etildi. Unda FA prezidenti jamoada yoshlarning ko'pligidan mammun ekanliginini ta'kidladi. Davlatimiz Rahbarining ilm-fanga ko'rsatayotgan e'tibori uchun alohida minnatdorchilik bildirdi.

Uchrashuv davomida ilm-fanda yoshlarning o'rni, kadrlar tayyorlash va xalqaro aloqalarni yanada rivojlantirish masalalari muhokama qilindi.

